

ZIRKDOSHLAR OILASI SISTEMATIKASI, O'ZIGA XOS BELGILARI, ASOSIY VAKILLARI VA ULARNING XALQ XO'JALIGIDAGI AHAMIYATI

Ne'matjonova Mohinur Nozimjon qizi

Andijon Davlat Pedagogika Instituti

Tabiiy fanlar fakulteti biologiya yo'nalishi 203-guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15104350>

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada Zirkdoshlar oilasi (*Berberidaceae*) vakillarining sistematikasi, ularning o'ziga xos morfologik belgilari, tarqalishi hamda xalq xo'jaligidagi ahamiyati yoritilgan. Zirkdoshlar oilasi ikki pallali o'simliklarga mansub bo'lib, asosan buta va daraxtsimon o'simliklardan tashkil topgan. Ularning ayrim turlari dori-darmon sifatida, bezak o'simliklari va oziq-ovqat manbai sifatida keng qo'llaniladi. Shuningdek, bu oila vakillarining ekologik muvofiqligi va tuproqni mustahkamlash xususiyatlari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Zirkdoshlar, Betulaceae, zarang, jo'ka, findiq, yog'och sanoati, shamol bilan changlanish, yong'oq mevalar, ekologik ahamiyat, tuproq eroziyasi, oziq-ovqat sanoati, dorivor o'simliklar.

АННОТАЦИЯ: В данной статье описывается система организации семейства Барбарисовые, его уникальные морфологические особенности, а также значение на предприятиях и в народном хозяйстве. Семейство саговниковых относится к двудольным растениям, состоящим преимущественно из кустарников и деревьев. Некоторые их виды широко используются в качестве лекарственных, декоративных и пищевых растений. Важно разобраться с собственными проблемами со здоровьем.

Ключевые слова: саговники, Betulaceae, клен, липа, орешник, лесная промышленность, ветроопыление, орехи, экологическое значение, эрозия почвы, пищевая промышленность, лекарственные растения.

ABSTRACT: This article discusses the systematics of the Berberidaceae family, its specific morphological features, and its importance in enterprises and the national economy. The Berberidaceae family is a dicotyledonous plant, consisting mainly of shrubs and trees. Some of their species are widely used as medicines, ornamental plants, and food. It is important in solving problems related to your health.

Keywords: Cypresses, Betulaceae, maple, linden, hazelnut, timber industry, wind pollination, nuts, ecological importance, soil erosion, food industry, medicinal plants.

Zirkdoshlar (*Berberidaceae*)-oilasi magnoliyasimonlar sinfiga mansub, ko'p yillik o't, buta yoki daraxtlarni oz ichiga oladi. Yer yuzida 14 turkumga mansub 650 turi bor. Ular asosan, Shimoliy yarim sharning mo'tadil hududlarida o'sadi. Yovvoyi holdagi zirkklar Yevropa, O'rta Osiyo hamda Uzoq Sharq hududlarida keng tarqalgan. Barglari teskari tuxumsimon, cho'zinchoq, o'tmas, chetlari biroz tishli yoki tekis, ularning uzunligi 2-6 sm keladi. Barglari qalin, qisqa bandli, ketma-ket joylashgan. Zirkning bargi tarkibida alkaloidlar, ayniqsa, berberin ko'p. Guli ikki jinsli, gulqo'rg'oni sariq, bir necha 4-5 qator bo'lib joylashgan, har bir qatorda 3 tadan gultojbarg bor. Ko'pchilik zirkning gulida tojbarg bilan changchisi orasida shiradon bo'ladi. Ayrim vakillarida changchilar orasida staminodilar ham uchraydi. Gullari sariq rangda bo'lib, gul shingili shoxlangan, rovaksimon. Guli sariq, qo'sh gulqo'rg'onli, shingilga to'plangan. Mevasi rezavor, ba'zan ko'sakcha yoki yong'oqcha

shaklida. Mevasi qoramtir-binafsha rangda bo'lib, ellipsimon ko'rinishga ega. O'zbekistonda 4 turkumga mansub 12 turi o'sadi. Zirk (Berberis vulgaris L.), qoraqand — zirkdoshlar oilasiga mansub butalar turkumi. Qora zirk (qoraqand) -zirkdoshlar oilasigamansub bo'lib, bo'yi 4 metrgacha boradigan sershox buta. O'simlikning eski shoxlarning kulrang, yosh novdalari qo'ng'ir bo'ladi. Tikanlari uch bo'lakli. O'simlik may oyida gullab, iyun-iyul oylarida pishadi. Ular dengiz sathidan 1800 m balandlikgacha mintaqalarda o'sadi. Qora zirk tabiiy holda respublikamizning Toshkent, Samarqand, Andijon, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlarining tog'li hududlarida, soy bo'ylarida to'p-to'p bo'lib o'sadi. Zirkning berberis integerrima bunge, berberis nummularia bunge, gymnospermium albertii (Regel) takht, leontice everesmannii bunge nomlarini xalq tilida qashqar, bergen, qizil, tugma, qoraqand deb atashadi. Zirk vakillarining salomatlik uchun foydali ne'mat ekanligi juda qadim zamonlardan ma'lum. Ossuriya shoxi Ashshurbanipalning shaxsiy qiroatxonasida saqlanuvchi, bundan 2670-yil muqaddam sopol taxtachalarga yozilgan kitoblarga qaraganda, zirk "Qonni pokizalovchi" omil sifatida qadrlangan. Uning shifobaxsh xususiyatlaridan qadimiy Misr, Hindiston tabiblari tadbirkorlik bilan foydalanishgan. Zirk gullaridan asal shirasi bor, ular o'zidan ko'plab nektar ajratadi, ayniqsa, iliq va nam havoda olingan asali xushbo'y bo'ladi. Zirk manzarali o'simlik sifatida ham qadrlanadi. Uning murg'ak novdalari, yashil barglari, tillarang gullari bahorda o'zgacha dilbarlik kashf etadi. Zirkni iste'mol qilish ayollarga klimaks va ko'zi yorigandan keyingi chilla kunlarida, muskullar faolligini oshirishini inobatga olib, homilador hamda emizikli ayollarga ham uni iste'mol qilish tavsiya qilinmaydi. O't pufagida tosh, jigar sirrozi, sariq kasalligida, uni iste'mol qilish yoqmaydigan ayrim shaxsiy holatlarda, shuningdek, 12 yoshga to'lmagan bolalar iste'mol qilishi maslakat berilmaydi. Yana shuni bilib qo'yish kerakki, zirkning hali pishib yetilmagan ko'k mevasi zaharli bo'lganidan uni iste'mol qilish aslo mumkin emas. Zirkdoshlar oilasining vakillari adir vatog-adir mintaqalarida kop tarqalgan. Xulosa qilib aytganda, zirkdoshlar oilasining vakillari inson hayotiga, sanoat mahsulotlari sifatida, xalq xo'jaligida juda katta ahamiyatga ega.

Dorivor ahamiyati.

Zirkdoshlar oilasining ayrim vakillari qadimdan xalq tabobatida ishlatilgan. Oddiy zirk (Berberis vulgaris) – Uning po'stlog'i, ildizi va mevalari berberin alkaloidiga boy bo'lib, antibakterial va yallig'lanishga qarshi ta'sirga ega. Mahonia (Mahonia aquifolium) – Terini tinchlantiruvchi va immunitetni mustahkamlovchi xususiyatlarga ega bo'lib, homeopatik dori vositalarida ishlatiladi. Zirk ildizlaridan tayyorlangan damlamalar jigar va safro yo'llari kasalliklarini davolashda qo'llaniladi. Oziq-ovqat sanoatida qo'llanilishi Zirk mevalari achchiq-totli ta'mi bilan mashhur bo'lib, murabbo, sharbat va ziravor sifatida ishlatiladi. Zirkdan tayyorlangan choy organizmni tetiklashtiradi va immunitetni oshiradi. Mevalarida ko'p miqdorda S vitamini mavjud bo'lib, u organizmni mustahkamlashga yordam beradi. Bezak o'simliklari sifatida Mahonia va zirk butalari peyzaj dizaynida keng qo'llanilib, park va bog'larni bezatishda ishlatiladi. Ularning qalin butalari himoya to'siqlari sifatida ekiladi. Kuz faslida zirk barglari qizil va to'q sariq tusga kirib, tabiatga go'zallik bag'ishlaydi. Ekologik ahamiyati Zirkdoshlar oilasi vakillari tuproqni eroziyadan saqlaydi. Ular changlatuvchi hasharotlar uchun ajoyib nektar manbai hisoblanadi. Ba'zi turlari qurg'oqchilik va sovuqqa chidamli bo'lib, shahar yashil hududlarini yaratishda foydalidir. Sanoat va bo'yoqchilikda

qo'llanilishi Zirk po'stlog'idan sariq bo'yoq olinadi, u matolar va iplarni bo'yashda ishlatiladi. Yog'ochi mustahkam bo'lib, turli hunarmandchilik buyumlari tayyorlash uchun ishlatiladi.

Biologik klassifikatsiya organizmlarni tip yoki tur kabi guruhlariga ajratish metodidir. Bunday guruhlar takson deb ataladi. Biologik klassifikatsiya taksonomiyaning bir qismidir. Zamonaviy biologik klassifikatsiya turlarni fizik xarakteristikalariga ko'ra guruhlariga ajratgan Carolus Linnaeus ishlaridan boshlandi. Ushbu guruhlar keyinchalik Charles Darwin aniqlagan umumiy ajdod prinsipiga mos ravishda qayta ko'rib chiqilgan. XX asr oxirlarida kladistika metodi paydo bo'lishi bilan biologiyada organizmlarni faqatgina nasldorlik asosida guruhlovchi filogenetik taksonomiya qo'llanila boshlandi. Ma'lumot sifatida DNK qatorlarini ishlatuvchi molekular filogenetika ham taksonlarni qayta ko'rib chiqishga yordam qildi va shu ishda davom etmoqda.

Xulosa

Zirkdoshlar oilasi inson hayotida ko'plab foydali jihatlari bilan ajralib turadi. Ular dorivor, oziq-ovqat, bezak va ekologik ahamiyatga ega bo'lib, tabiat muvozanatini saqlashga ham yordam beradi. Shu sababli bu oila vakillarini keng o'rganish va ularning imkoniyatlaridan samarali foydalanish juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
2. Shifobaxsh nematlar M.Nabiyev, V.Shalnev, A. IbrohimovToshkent -«Mehnat» -19892.
3. Tojiboyev M.U. Foydali osimliklar resursshunosligi fanidan amaliy mashg'ulotlar. Andijon-2024.
4. <https://web.archive.org/web/20120506010934/http://www.ctoz.nl/ctz/vol79/nr04/art01>.